



## MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA YEVROPA KLASSIK MUSIQA ASARLARINI O'RGANISH USLUBLARI

**Berdimurodova Surayyo Rashidovna**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
Musika madaniyati fakulteti Musika ta'limi va san'at yo'nalishi  
magistranti

surayyoberdimurodova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7981493>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 23-May 2023 yil

Ma'qullandi: 26-May 2023 yil

Nashr qilindi: 29-May 2023 yil

### KEY WORDS

pedagogik texnologiya,  
innovatsiya, texnologik xarita,  
ta'lim metodlari, mumtoz  
musika, opera, balet,

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada musika madaniyati fan dasturida belgilangan Yevropa mumtoz musiqasi mavzusi bo'yicha darslarni tashkil etishning innovatsion pedagogik texnologiyalari, shuningdek, oltinchi sinf yil mavzusi va uning negizida mujassamlashgan mumtoz musika haqida o'quvchilarga kerakli bilim va tushunchalarni berish, ularni estetik madaniyatini shakllantirish va musiqiy-nazariy savodxonligini o'stirish, o'ziga xos pedagogik, metodik ish, usul va shakllaridan o'rinli va unumli foydalanishga doir tavsiyalar berilgan..*

Zamonaviy o'qituvchi – kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisidir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida respublikamizning ta'lim tizimida ro'y berayotgan yangilanishlar, demokratik o'zgarishlar ta'limning eng muhim bo'g'ini bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha fanlar qatori "Musika madaniyati" fani o'qitilish mazmuni va mohiyatini ham jahonning eng ilg'or mamlakatlari andozalari darajasida, shu bilan birga uni birinchi navbatda milliy negizda shakllantirishni taqozo etmoqda.

O'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash va unga puxta ta'lim berish ishida o'quv-tarbiyaning yanada samaradorligini taminlash maqsadida barcha ta'lim yo'nalishlari va shu qatorda musika ta'limida ham yangicha pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish muhim ahamiyatga ega.

O'quvchi-yoshlar ta'limida muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishi, bilmaslikdan-bilishga, qo'ldan kelmaslikdan uddalay olishga, yani o'z kuch-g'ayratlarining ma'nosi va samarasini anglashga tomon siljish, yutuqlar quvonchini his etishni taminlovchi sharoitlarni yaratish, mehnatsevarlik, o'qishga havas va o'qish iqtidorini tarbiyalash asosiy vazifalardan biridir. Musika tufayli insonda oliyjanoblik, ulug'vorlik, go'zallik tashqi dunyodagina emas, balki uning o'zida ham mavjud ekanligi to'g'risidagi tasavvur yuzaga keladi. O'zbek xalqining bebaho, mumtoz, nodir musika asarlarini xalq cholg'ularida badiiy, yetuk ijro etishni rivojlantirish, hozirgi davrimizda yoshlarni musiqaga bo'lgan qiziqishini orttiradi.

**ASOSIY QISM.**

Yevropa mumtoz musiqasini umumta'lim maktablari musiqa darslarida o'rganilishi yoshlarni musiqa ijodiyotiga bo'lgan mehr-muhabbatlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz. O'quvchilar bilan Yevropa mumtoz musiqa ijodiyoti, uning mashhur namoyondalari ijodiga mansub turli janrlardagi asarlar, ularning mumtozlik xususiyatlari haqida suhbatlar uyushtirish, namunalar tinglash, Yevropa xalqlari musiqa ijodiyotiga xos bo'lgan musiqiy atamalar, janrlar, yo'nalishlar, cholg'ular ijrochiligida o'ziga xos jihatlarini taqqoslash yo'li bilan o'quvchilarga yetkazish o'quvchilar ongida ushbu ma'lumotlarni mustahkam saqlanishiga olib keladi. Bu o'rinda musiqa o'qituvchisi tashabbuskor, izlanuvchan mahoratga ega bo'lmog'i lozim. Uning o'zi har bir mavzu bo'yicha yetarlicha bilim va tushunchaga ega bo'lishi, darslikdagi o'quv materiallari bilan cheklanmasligi, qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan holda samarali pedagogik texnologiyalardan foydalanib, darslarni tashkil etishi maqsadga muvofiqdir [1].

Darslarni innavotsion pedagogik texnologiyalar yordamida samarali tashkil etish uchun avvalo "pedagogik texnologiya" atamasining mazmun mohiyatini chuqurroq anglashimiz zarur. Pedagogik texnologiya hozirda barcha pedagogik kasblar hamda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish bilan bog'liq kasblarning asosini tashkil qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan barcha pedagoglar xabardor bo'lishlari shart.

Pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrda paydo bo'ldi va turli rivojlanish bosqichlaridan o'tib kelmoqda.

O'tgan asrning 50-yillari o'rtasidan 60-yillargacha «ta'lim texnologiyasi» atamasi qo'llanilib, bunda dasturlashtirilgan ta'lim nazarda tutilgan.

70-yillarda «pedagogik texnologiya» atamasi qo'llanilib, u avvaldan loyihalashtirilgan va aniq belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o'quv jarayonini ifodalagan.

80-yillarning boshidan pedagogik texnologiya deb ta'limning kompyuterli va axborot texnologiyalarni yaratishga aytilgan.

**Pedagogik texnologiya ta'riflari:**

«Pedagogik texnologiya – barkamol insonni shakillantirish faoliyati».

Shu bilan birga, pedagogik texnologiyaning keng ko'lamlı, serqirra tushuncha ekanligini hisobga olgan holda, uning quyidagi yana bir nechta ta'riflarini keltirishimiz mumkin:

Pedagogik texnologiya axborotlarini o'zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma'no – mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog'liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o'rgatish jarayonidan iborat.

Pedagogik texnologiya – ta'lim metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi; u pedagogik jarayonning tashkiliy – uslubiy vositalari majmuidir.

Pedagogik texnologiya – bu o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini o'quvchi, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini texnik resurslar va odamlarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir.

Pedagogik texnologiya – ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish hamda o'zlashtirish jarayonidan iborat.

Demak, pedagogik texnologiya insonga (ta'lim-tarbiya oluvchiga) oldindan belgilangan

maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat.

Pedagogik texnologiya o'quvchini mustaqil o'qishga, bilim olishga, fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

Pedagogik texnologiya jarayonida o'qituvchi rahbarligida o'quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi.

### **Innovatsion texnologiyalar tushunchasi**

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar dan foydalaib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

### **Innovatsiya** (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar bu – jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullarini o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi – talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi – talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

- o'quvchi – talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;

- o'quvchi – talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;

- pedagog va o'quvchi – talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirishi va ta'minlashi.

Pedagogik texnologiya masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya – bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan TSO (TVF), kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi [2].

O'qituvchi va o'quvchi-talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi - aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi-talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'ladi, bular o'qituvchi va o'quvchi-talabaga bog'liq.

O'qituvchi dars ishlanmasini yozish bilan bir qatorda, o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirishi zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitini, eng asosiysi, o'quvchining imkoniyati, ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini nasardaa tutishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish

mumkin bo'ladi. Qisqa qilib aytganda, o'qituvchi o'quvchini ta'limning markaziga olib chiqishi kerak.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi lozim. Bunda o'qituvchi tomonidan bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritaning tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogika va axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metodlar, usullarni bilishi kerak bo'ladi. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

Darsning texnologik xaritasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi, fantaziyasi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo'lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo'lishi, aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafotlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Texnologik xaritaning tuzilishi o'qituvchi tomonidan darsni kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining barcha qirralari o'z aksini topadi.

O'qituvchi tomonidan o'zi o'qitayotgan fanning har bir mavzusi, har bir dars mashg'uloti bo'yicha tuzilgan yuqoridagi kabi texnologik harita unga fan, predmetini yaxlit holda tasavvur etib yondoshishga, tushunishiga (bir o'quv yili bo'yicha), yaxlit o'quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tortib, erishiladigan natijasini ko'ra olishiga yordam beradi.

### **Pedagogik texnologiyalarning asosiy jarayonlari**

Pedagogik texnologiyalarning turlari ko'p bo'lib, yo'nalish va maqsadlarga asosiy e'tibor qaratilgani bilan farq qiladi. Pedagogik texnologiya jarayonlarini o'rganishning soddalashtirilgan tartibini quyidagicha tushunish mumkin:

Tushuntirish – axborotning ma'no-mazmunini, undan foydalanish tartibini turli vosita va usullarni qo'llab, tushuntiruvchining o'zi tushungan darajada boshqalarga yetkazish faoliyatidan iborat jarayon.

Tushunish - axborotning ma'no-mazmunini idrok qilish, undan ko'rsatilgan tartibda mustaqil foydalana olish.

O'rgatish - axborotdan foydalanish va turli harakatlarni bajarish ko'nikmalarini o'rgatuvchining o'zi o'rgangan darajada boshqalarni takrorlay olishini, turli vosita va usullarni qo'llab amalga oshirish faoliyatidan iborat jarayon.

O'rganish – axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallash.


O'zlashtirish – tushunish, o'rganish orqali axborotning ma'no-mazmuni, undan foydalanish yoki harakatlarni bajarish tartibi to'g'risida bilim va ko'nikmalar hosil qilish. O'zlashtirish shartli ravishda quyidagi uchta darajaga ajratiladi.

- 1) O'rgatilgan bilim, ko'nikmalarni to'g'ri takrorlash;
- 2) Ularni amalda, faoliyatda qo'llash, ulardan tegishli maqsadlarda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish;


3) Ularni ijodiy tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish asosida takomillashtirish faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lish.

Shu bilan birga, pedagogik texnologiyalarning hammasida ham birdek qo'llaniladigan va ta'lim-tarbiya jarayonining tarixiy tarkib topishida va rivojlanib borishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan asosiy tarkibiy elementlar, so'zlash, ko'rsatish va mashqlar bajarishdan iborat bo'lib, ular o'zaro quyidagicha ketma-ketlikda va bog'liqlikda amal qiladi:


### Pedagogik texnologiyalardagi asosiy tarkibiy elementlar



### O'quvchi faoliyatidagi asosiy jarayonlar



### O'qituvchi faoliyatidagi asosiy jarayonlar



Bir soatlik dars davomida ilg'or pedagogik texnologiyaning muhim tamoyillaridan biri oz vaqt sarflab, yuqori natijalarga erishishdir. Masalan: mumtoz musiqa tushunchasini o'quvchilar tomonidan to'g'ri idrok etilishiga erishish uchun "aqliy xujum" metodidan foydalanish mumkin. Bunda qisqa vaqt ichida, deylik, besh daqiqa ichida "aqliy xujum" uyushtiriladi:

Savol: "Klassika" nima? yoki Yevropa xalqlari musiqasida "Klassika" (mumtoz) atamasi qachon va nimaga nisbatan qo'llanilgan?

O'quvchilar ushbu savolga o'z bilganlaricha javoblarini yozishadi va birin-ketin fikrlarini ifoda etishadi. O'quvchilarning fikr va g'oyalari turlicha bo'lishi mumkin, o'qituvchi ushbu vaziyatda o'quvchilar fikrini qo'llab quvvatlagan holda to'g'ri yo'nalish bera olishi juda muhim. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarning javoblari mazmuni, ularning xato kamchiliklari tahlil qilib boriladi, umumlashtiriladi va to'ldiriladi. Shundan so'ng ushbu savol bo'yicha o'qituvchi tomonidan to'liq ma'lumot berishga yo'naltirilgan suhbat o'tkaziladi.

Yevropa mumtoz musiqasi mavzusi bo'yicha darslarni tashkil etishda har bir

kompozitor ijodiga tegishli kuy-qo'shiqlarni, darslikka kiritilgan tegishli namunalarni, shuningdek kompozitorlar tomonidan yaratilgan opera, balet, kantata, oratoriya, sonata, uvertyura kabi namunalarni haqida suhbat, hikoya, ma'ruza va tushuntirishlardan so'ng ushbu namunalarni birgalikda tinglash, so'ngra o'quvchilar bilan uni tahlil qilish, munozara uyushtirish hamda darsni mazmunli va samarali kechishini ta'minlaydi. O'qituvchi doimiy ravishda o'quvchilarning musiqaga bo'lgan qiziqishlari va intilishlarini inobatga olib borishi kerak. Har bir o'quvchida xalq musiqasiga, shuningdek, qardosh xalqlar, chet el, xususan jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan Yevropa mumtoz musiqasi namoyondalari ijodiga qiziqish va to'g'ri munosabatni uyg'ota olishi kerak [3].

Darslarni samarali tashkil etishda va o'quvchilarga eng muhim tushuncha, bilim, va ma'lumotlarni yetkazishda o'qituvchining notiqlik san'ati katta ahamiyat kasb etadi. U gapirayotganda har bir so'zini amaliyot bilan bog'lashi, nima to'g'risida qanday gapirish, qanday vositalardan foydalanishni oldindan rejalashtirib olgan bo'lishi lozim. Ayniqsa, yuqori sinflar o'quv dasturidan joy olgan musiqiy asarlarni aksariyati mumtoz asarlar bo'lgani uchun Yevropa xalqlari mumtoz musiqasi mavzusidagi ma'lumotlarni faqatgina oltinchi sinf 4-choragida berish bilan cheklanmay, bu haqida yuqori sinflarning barcha mashg'ulotlari davomida, hattoki uchinchi sinfdan boshlab, yettinchi sinfgacha izchil davomiylik asosida berib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday ish tutilganda oltinchi sinfga kelib mumtoz musiqa haqidagi tushunchalar o'quvchilar uchun "yangilik" bo'lib qolmaydi.

Mumtoz musiqa, xususan Yevropa xalqlari mumtoz musiqasi bilan tanishtirishda o'quvchilarning xohish istaklariga ko'ra, ularni badiiy-havaskorlik to'garaklariga jalb qilishi va u yerda ularga mustaqil ravishda kuy-qo'shiqlar o'rgatish ham samarali ish usullaridan hisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchilar Yevropa xalqlari qo'shiqlarini, raqslarni o'rganishadi, turli bayramlarda chiqishlar qilib o'z mahoratlarini ko'pchilik oldida namoyish qilib borishadi.

Yevropa mumtoz musiqasiga mansub buyuk asarlar va ularning ijodkorlari haqidagi bilim va tushunchalarni darsning barcha faoliyatlarida olib borish va ularning bilim, malaka ko'nikmalarini yetarli darajada o'zlashtirishlarida quyidagi musiqiy faoliyatlar negizida darslarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### **Musiqa tinglash** faoliyati turlarida:

1. Biror musiqa tinglanganida uning bastakori, asarning janri, mazmuni, qaysi kompozitor ijodiga tegishli ekanligi, g'oyaviy-badiiy mazmuni haqidagi ma'lumotlarga e'tibor qaratish.

2. O'qituvchi jonli tarzda o'rganilayotgan asarni yoki kuy-qo'shiqning biror parchasini fortepiano yoki boshqa bir cholg'u asbobida chalib, tinglatish bilan o'quvchilarni ushbu asar va uning muallifi ijodiga mehr va qiziqish uyg'otishi mumkin.

3. Yevropa mumtoz musiqasi tarkibiga kirgan opera, balet, kantata, oratoriya, syuita kabi yirik janrdagi asarlarning muayyan qismlarida bo'lgan kuylarni, ariyalarni, uvertyuralarni eshittirish, tinglangan kuylar, qo'shiq va ariyalarni tasmalarda eshitilganda o'quvchilardan qaysi kuy yoki qo'shiq ekanligi va qaysi asarga tegishli ekanligini so'rab borish.

#### **Jamoa bo'lib kuylash** faoliyat turida:

1. Yevropa mumtoz musiqasiga mansub tavsiya etilgan qo'shiq yoki ariyaning matnining mazmuni, uning g'oyaviy badiiy mazmuni, ta'limiy va tarbiyaviy tomonlari bilan o'quvchilarni xabardor etish.

2. Tinglangan asarlarni eng muhim xususiyatlari, ularning ijrochilik uslublari, mashhur ijrochilari hamda va ularning o'ziga hos ijro mahorati haqida tushunchalar berish.

3. Qo'shiq yoki asarning ma'lum parchasini o'qituvchining o'zi tomonidan kuylab yoki cholg'u sozida chalib ko'rsatishi asar haqida o'quvchilarda real tushunchalarni hosil bo'lishiga samarali ta'sir etadi.

4. Opera, balet, simfonik asarlardagi vokal qo'shiqlarini jamoa bo'lib kuylashga o'quvchilarni jalb etish.

### **Musiqa savodi faoliyatida.**

Mazkur faoliyatda o'quvchilarga yevropa xalqlari mumtoz musiqa ijodida shakllangan Sonata, sonatina, rondo, pyesa, romans, kontata, syuita janrlari, ularning shakliy tuzilishi, o'ziga xos ijrochilik xarakteri, qaysi kompozitorlar ijodida keng o'rin tutganligi haqidagi ma'lumotlarni aniq dalillar asosida yetkazishga e'tibor qaratish lozim.

Bu o'rinda syuita (M. Nasimov "Dilbarim") kantata (S.Yudakov "Mirzagul"), Romans, (D. Zokirov "ko'rmadim"), oda, (M. Burhanov "A. Navoiy poemasiga qasida") kabi asarlaridan ham foydalanish maqsadga muvofiq.

Mazkur janrlarni o'ziga xosligini chuqur va yaxshi anglashga erishish uchun ularni tinglash va taqqoslashga (masalan, o'zbek xalq mumtoz ashulalari – Gulzorim, Ey sabo, Ko'cha bog'i, Ushshoq, Munajat) kabilarni romans janridagi, qo'shiqlarni pyesalar bilan, sonata bilan randoni, kantata bilan aratoriyalarni taqqoslash, farqli jihatlarini aniqlash kabilarga alohida to'xtalib o'tildi. Shu bo'yicha o'quvchilarga savollar taqdim etilib, ularning javoblari savol-javob, bahs-munozara kabi shakllarda tahlil qilish zarur.

Mazkur faoliyat turida musiqa nazariyasi bilan birga Yevropa mumtoz musiqasi haqida nazariy bilimlarni o'quvchilarga mavjud tarixiy, ilmiy, uslubiy manbalarga tayangan holda yetkazish, 6-sinflar uchun chiqarilgan musiqa madaniyati fani dasturida mumtoz musiqa haqida, jumladan o'zbek mumtoz musiqa san'ati, sharq xalqlari mumtoz musiqasi hamda yevropa mumtoz musiqasi haqidagi bilim va tushunchalarni musiqa madaniyati o'qituvchisi sinf imkoniyatidan kelib chiqqan holda o'quvchilarga yetkazishning turli usul va shakllardan unumli foydalanishi lozim.

### **XULOSA**

Respublikamizda ta'lim sohasiga qaratilayotgan e'tibor, yaratilayotgan shart - sharoitlar ushbu jabhada faoliyat yuritayotgan har bir pedagog – murabbiylarni o'z ishiga fidoiy, izlanuvchan, tashabbuskorlik bilan yondashish, zamon talablariga muvofiq respublikamiz va rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimidagi yangiliklardan doimiy ravishda xabardor bo'lib, ta'lim mazmuni, sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi ish shakl, usullari, vositalari, metodologik asoslarini o'zlashtirib borish va amaliyotga tadbiiq etishlarini taqazo etadi.

Yevropa mumtoz musiqasi bilan tanishishning eng muhim jihatlari shundaki, Yevropa mumtoz musiqasi madaniyatida shakllangan janrlar keyingi ikki asrdan ortiqroq vaqt mobaynida dunyoning barcha xalqlari musiqa madaniyatidan munosib joy oldi, umumbashariy san'at darajasiga ko'tarildi. Yevropa mumtoz musiqa ijodkorlari tomonidan yaratilgan asarlar dunyo xalqlarining umumiy mulkiga aylandi va musiqa san'ati taraqqiyotida ulkan burulish yasalishiga sabab bo'ldi. Shuning uchun bizning mamlakatimizda ham o'quvchi yoshlarni Yevropa mumtoz musiqasi, uning yorqin namoyondalari, ularning eng sara asarlari bilan umumiy tarzda bo'lsa ham tanishtirib borish musiqiy ta'limning eng muhim

vazifalaridan sanaladi [4].

Yuqorida yuritilgan fikr mulohazalar amaliy tavsiyalar musiqa ta'limi sohasida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlar uchun kerakli dasturi amal bo'lib xizmat qiladi deb o'ylaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Т.А. Печенкина. Этапы развития классической музыки: метод-разр. С-П.2020. С-3.
2. D. Karimova, D Namozova. Musiqa o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. B-23.
3. Гуревич Е. История зарубежной музыки. 2-е изд.- М., 2000.С-132.
4. О. А. Ibrohimov G'. M. Xudoyev. Musiqa tarixi.O'quv qo'llanma. T:2018. B-139.

